Ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirish davlat talablarini, shuningdek, davlat o'quv dasturini amalga oshirishga yordam beradigan qisqa muddatli (haftalik) va uzoq muddatli (yillik) rejalarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Mavzuli reja yozma shaklda bo'lishi kerak.

Yillik mavzuli reja

Yillik mavzuli rejada oy mavzulari, har bir yosh yoki yosh guruhi uchun hafta mavzulari aks ettirilgan. MTT mintaqaning xususiyatlari va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda o'z yillik mavzuli rejasini ishlab chiqish huquqiga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik mavzuli rejasini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish" (2018) tavsiyalariga tayanish tavsiya etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik mavzuli rejasi¹¹ maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Haftalik reja

Haftalik reja yillik mavzuli reja asosida tuziladi va hafta mavzulari hamda hafta davomida ushbu mavzu bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Haftalik reja¹² barcha rivojlanish sohalari maqsadlarini belgilashga qaratilgan bo'lib, tegishli rivojlanish markazlarini tayyorlash, haftalik mavzuga muvofiq bolalar faoliyati turlarini rejalashtirish imkonini beradi. Hafta mavzusi guruhdagi barcha rivojlanish markazlarida o'tkazilishi kerak. Haftalik rejaga ko'ra guruhda ham, sayrda ham har xil turdagi o'yinlar rejalashtiriladi. Bolalarning o'yin faoliyati ularning xohishiga ko'ra¹³ amalga oshiriladi.

Bolalar bilan ishlashning mazmuni va ketma-ketligi faoliyat turi (faol faoliyat/passiv faoliyat; individual faoliyat/kichik guruhda/katta guruhda; pedagog rahbarligida o'tkaziladigan faoliyat/ bolaning tashabbusi va tanlovi bo'yicha amalga oshirilgan faoliyat) va uni o'tkazish joyini (xona ichidagi faoliyat / ochiq havoda faoliyat) hisobga olgan holda rejalashtirilishi kerak

10 "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi bo'yicha uslubiy qo'llanmasini qarang//Maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun dasturlarni ishlab chiqish//birinchi nashr//35-bet, Toshkent//2020

11 "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturiga 4-ilova//Namunaviy yillik mavzuviy reja//

12 "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturiga 5-ilova//Namunaviy haftalik reja//

13 "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi bo'yicha uslubiy qo'llanmasini qarang//O'yin orqali o'rganish//birinchi nashr//27-bet// Toshkent// 2020

Haftalik ish reja xilma-xil va moslashuvchan, ya'ni, ob-havoning o'zgarishi va bolaning qiziqishini hisobga olgan holda, rejalashtirilgan faoliyat boshqasiga almashtirilishi yoki bolaning mashg'ulot vaqti moslashtirilishi mumkin. Misol uchun, agar pedagog bahorgi gulzorga tashrif buyurishni rejalashtirsa, lekin ob-havo juda yomg'irli bo'lsa, unda bu mashg'ulotni xonada o'tkazilish mumkin bo'lgan boshqasiga almashtirishi mumkin.

Haftalik reja - bu pedagogning ish jurnali bo'lib, unda ta'lim va tarbiya jarayonining kunlik rejasi aks ettiriladi. Mashg'ulot ishlanmalari kunlik rejaga ilova qilinishi mumkin. Ishlanmalar pedagogning xohishiga binoan, ijodkorlik va xilma-xillikdan foydalangan holda ishlab chiqiladi.



5-BOB

BOLANING RIVOJLANISH SOHALARI BO‘YICHA YUTUQLARI



Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning ta'lim olishi va rivojlanishini baholash kuzatishlar yordamida amalga oshiriladi. Pedagog bolalar hayotini muntazam va tizimli ravishda kuzatib boradi.

Bolaning rivojlanishini kuzatish – pedagog faoliyatidagi muhim mas'uliyatli ish. Kuzatishlarning maqsadi ta'lim va tarbiya jarayonida bolaning turli bilim va ko'nikmalardan qanday foydalanishi haqida ma'lumot to'plashdir. Bolalarni turli joy, vaqt va sharoitlarda kuzatib, pedagog ularning qiziqishlari, kuchli tomonlari va ehtiyojlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'ladi.

Pedagogik kuzatishlar natijasida olingan ma'lumotlar asosida ta'lim va tarbiya jarayoni rejalashtiriladi va takomillashtiriladi.

Kuzatish natijalarini hujjatlashtirish pedagogga ularni saqlash, vaqt o'tishi bilan sodir bo'lgan o'zgarishlarni kuzatish va bolaning ota-onalari, shuningdek, ushbu maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislari bilan bolalarning rivojlanishi va ta'lim olish xususiyatlari haqida ma'lumot almashish imkonini beradi. Bolaning rivojlanishi va ta'lim olishidagi yutuqlarini kuzatish va baholash natijalarini hujjatlashtirish uchun rivojlanish xaritalaridan foydalaniladi.

Rivojlanish xaritasi kuzatuvlarni hujjatlashtirish shakli sifatida bolaning turli sohalardagi rivojlanish darajasi to'g'risida muntazam ravishda ma'lumot to'plash jarayonini o'z ichiga oladi.

Rivojlanish xaritasi davlat talablari asosida bolaning rivojlanish sohalari, kichik sohalari va kutilgan natijalarga tayanadi.

Bolaning rivojlanish xaritasi har bir yosh guruhi (3-4, 4-5, 5-6, 6-7) uchun alohida yuritiladi va har bir bola ¹⁴ uchun bir yilda uch marta: o'quv yilining boshida, o'rtasida va oxirida to'ldiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidan chiqishda **6-7 yoshli** ¹⁵ **bolaning maktabga tayyorligi xaritasi** (faqat MTT bitiruvchilari uchun) to'ldiriladi.

14 "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga 7-ilova// "Bolaning rivojlanish xaritasi"

15 "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturiga 8-ilova// "«6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi»"



6-BOB

RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL QILISH



Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning yoshi, individual xususiyatlari va ehtiyojlarini, shuningdek, mintaqaning madaniy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlantiruvchi muhit mazmuniga quyidagi talablar qo'yiladi:

- **mazmunan boy** – davlat o'quv dasturining mazmuniga mos kelishi, materiallar, jihozlar va xona va bino tashqarisidagi inventarlarning xilma-xilligi;
- **o'zgartuvchan** – ta'lim va tarbiya jarayoni vaziyatiga, shuningdek, bolalarning qiziqishlari va imkoniyatlarining o'zgarishiga qarab rivojlantiruvchi muhitda o'zgarishlar bo'lish imkoniyatini nazarda tutadi;
- **polifunksional** – rivojlantiruvchi muhitning turli tarkibiy qismlaridan xilma-xil foydalanish imkoniyati;
- **muqobil** – guruhda turli joylar, rivojlanish markazlari, shuningdek, bolalarning erkin tanlovini ta'minlaydigan turli xil materiallar, o'yinlar, o'yinchoqlar va jihozlarning mavjudligi; o'yin materialining muntazam ravishda o'zgartirilishi, bolalarning o'yin, harakat, bilish va tadqiqot faoliyatini rag'batlantiradigan yangi buyum va ashyolarning paydo bo'lishi;
- **hammabop** – tarbiyalanuvchilar, shu jumladan, alohida ta'lim olish ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan barcha faoliyat turlarini ta'minlaydigan o'yinchoqlar, qo'llanmalar, resurslar bilan ta'minlanganligi;
- **xavfsiz** – barcha elementlarni ulardan foydalanishning ishonchligi va xavfsizligini ta'minlash talablariga muvofiqligini nazarda tutadi;
- **oqilona** – davlat o'quv dasturi va davlat talablariga muvofiq zamonaviy rivojlantiruvchi muhitni yaratish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotining turli ta'lim dasturlarini amalga oshirishni ta'minlash uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish; inklyuziv ta'lim tashkil etilgan taqdirda, zarur shart-sharoitlarni ta'minlash;
- **mahalliy sharoitga moslashtirilgan** – madaniy va tarixiy qadriyatlarga, milliy va mintaqaviy an'analar, tabiatga, iqlimga bog'liq xususiyatlar, hududdagi sanoat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga mos bo'lishi;
- **shaxga yo'naltirilgan** – pedagog har bir bolaning o'z qiziqishiga ko'ra shug'ullanishini ta'minlashi kerak (bolalar guruh muhitida osongina harakat qilishadi, qayerda nima joylashganini biladilar, o'yinchoqlar va barcha resurslardan erkin foydalana oladilar).

Rivojlantiruvchi muhitning mazmuni maktabgacha ta'lim tashkilotining sharoitlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kamida 5ta rivojlanish markazlarini¹⁶ tashkil etishni ta'minlashi kerak.

¹⁶ "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturiga 9-ilova// "Guruhlarda rivojlanish markazlarining taxminiy joylashuvi"



7-BOB

DAVLAT O'QUV DASTURI BO'YICHA KUTILAYOTGAN TA'LIMIY NATIJALAR



Davlat o'quv dasturini o'zlashtirishdan kutilayotgan ta'limiy natija maktabgacha ta'lim tashkilotini bitiruvchi bolaning tayanch kompetensiyalari (kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy, bilish)ning shakllanganligi hisoblanadi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida pedagog kuzatishlar yordamida har bir bolaning rivojlanishini davlat talablarida qayd qilingan rivojlanish sohalari va kichik sohalari bo'yicha barcha yosh guruhida bolaning mumkin bo'lgan yutuqlarining ijtimoiy-me'yoriy yosh xususiyatlarini kuzatib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining individual xususiyatlari maktabgacha yoshdagi bolaning davlat talablariga to'liq mos keladigan ta'lim yutuqlariga qo'yiladigan talablarni cheklaydi va ta'lim dasturini o'zlashtirishda **kutilayotgan natijalar** shaklida aniqlash zarurligini belgilaydi.

Davlat talablariga muvofiq kutilayotgan natijalar:

- to'g'ridan-to'g'ri baholanmaydi, ya'ni bolalarning haqiqiy yutuqlarini davlat talablari bilan **rasmiy taqqoslashga** yo'l qo'yilmaydi (bunda bolalarning sinovdan o'tishlariga yo'l qo'yilmaydi);
- pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish, davlat o'quv dasturini o'zlashtirish sifatini baholash kabi boshqaruv vazifalarini hal qilish uchun rasmiy asos bo'la olmaydi;
- bolalardan kutilayotgan natijalar direktor va pedagoglar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim va tarbiya jarayoni va MTT jamoasining kasbiy faoliyatini tahlil qilishga yordam beradi.



8-BOB

RESURS TA'MINOT



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat o'quv dasturini amalga oshirishning resurs ta'minoti O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Minimal resurslar bilan ta'minlanganlik kun tartibi va yillik rejada ko'zda tutilgan o'yin, qiziqishlarga ko'ra mashg'ulot va loyihaviy faoliyatlarni amalga oshirishni ta'minlashi kerak. Shu bilan birga, ilovada¹⁷ keltirilgan resurslar bilan bir qatorda ushbu markazlar va rivojlantiruvchi muhitni bolalar, otalar va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati mahsulotlari bilan jihozlash tavsiya etiladi; shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari zarur o'quv va rivojlantiruvchi didaktik materiallarni yaratishda mahalliy hamjamiyat resurslari va o'zlarining ijodiy qobiliyatlariga tayanishlari mumkin.

17 "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturidagi 10-ilova// "Guruhlardagi rivojlanish markazlari va rivojlantiruvchi muhit uchun materiallarning namunaviy ro'yxati"

GLOSSARIY

Alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar – nogironligi bo'lganidan yoki bo'lmasligidan qat'i nazar, oila, pedagoglar, mutaxassislar, jamiyat va davlatning alohida e'tiboriga muhtoj bo'lgan individual ehtiyojlarga ega bolalar.

Individual ta'lim xaritasi – bu tarbiyalanuvchining qiziqishlari va ta'lim talablari asosida tuzilgan, uning barcha qobiliyatlari va iste'dodlarini ochish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydigan o'quv faoliyati dasturi.

Kvest – (ing. „**Quest**“ „muammo“, „izlanish“, „sarguzasht“ degan ma'noni anglatadi) hikoya mazmuniga ega sarguzashtli interfaol o'yin (ing. „Adventure game“)), uning ishtirokchilari belgilar orqali harakatlanib, topshiriqlarni topadi va bajaradi. **Kvest** o'yini – bu bolalarning kognitiv qiziqishini va muammolarni ishtiyoq bilan hal qilish istagini faollashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan eng samarali va o'ziga xos ta'lim texnologiyasi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya – bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi.

Rivojlanish (pedagogikada) – olg'a intilish natijasida muntazam o'zgarish jarayoni, bir holatdan mukammalroq boshqa holatga, oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga o'tish.

Tarbiya – bu jamoa va pedagoglarning tarbiyalanuvchiga shaxsni mazmunan maqsadli shakllantirishdan iborat bo'lgan, maxsus tashkil etilgan, maqsadli va boshqariladigan ta'siri. Shu bilan birga, ta'lim tashkilotida va oilada ta'lim va tarbiya o'zaro uzviy bog'liqdir.

Ta'lim va tarbiyaning muqobil shakli - maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida innovatsion ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish modeli;

Fasilitatsiya (yengillashtirmoq) – (ingliz tilidan „**facilitate**“ – „osonlashtirish“, „rag'batlantirish“, „qulay shart-sharoitlarni yaratish“) bu ongli o'quv jarayonlaridir, bolalarning qiziqishini oshirish uchun ularga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, ularning o'ziga ishonchini orttirish, mustaqil va samarali faoliyatlariga bo'lgan ehtiyojlarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga yordam beradigan qulay muhit yaratish, rivojlanayotgan ta'lim usulidir;

Fasilitator – bu an'anaviy ta'lim konsepsiyasi doirasida ishlamaydigan, aksincha, bolalarni o'zlarini o'rganish uchun yo'naltiruvchi va yordam beradigan pedagogdir (masalan, g'oyalarni tanlash, ular haqida o'z fikrlarini shakllantirish, tadqiqot va suhbat orqali materialni o'zlashtirish).

Xulq-atvor – bu shaxsning biror kishi yoki narsaga (masalan, shaxsga, guruhga, tashkilotga, masalaga, hodisaga, belgiga) nisbatan umumiy psixologik munosabati. Xulq-atvor ko'nikmalari odatda to'rt komponentdan iborat: xatti-harakat ob'ekti haqidagi e'tiqod va fikrlar, ob'ektga nisbatan hissiyot yoki tuyg'ular, ob'ektni baholash (ijobiy yoki salbiy) va ob'ektga nisbatan o'zini qanday tutishga moyillik.



"ILK QADAM" DAVLAT O'QUV DASTURIGA ILOVALAR



1-ILOVA

MTT ta'lim dasturini yaratish bo'yicha tavsiyalar

Ta'lim dasturi (quyida – Dastur) – MTT davlat o'quv dasturiga asosan muayyan yosh guruhida tashkil etiladigan ta'lim va tarbiya jarayonini amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim hujjat bo'lib, u davlat talablariga asosan kutilayotgan natijalarga erishishni ta'minlashi lozim.

Dastur – muhim vosita bo'lib, uning yordamida pedagoglar davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishning eng maqbul va samarali shakl, metod hamda yo'llarini belgilaydi.

Dastur majburiy qism hamda ta'lim va tarbiya jarayoni ishtirokchilari tomonidan shakllantiriladigan qismdan tashkil topadi. Har ikki qism ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini amalga oshirish nuqtai nazaridan o'zaro bir-birini to'ldiruvchi hamda zaruriy hisoblanadi.

Dasturning **majburiy qismi** barcha beshta rivojlanish sohasi: jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish hamda ijodiy rivojlanishni amalga oshirishga kompleks yondashuvni ko'zda tutadi.

Dastur bolalarning o'ziga xos sharoitlari, ta'lim ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, pedagog davlat talablari asosida ta'limning individual pedagogik modelini qanday yaratishini ko'rsatishi kerak.

Dastur uchta asosiy bo'limni qamrab oladi:

- **maqsadli** – bu tushuntirish xati hamda dastur o'zlashtirilishining rejalashtirilayotgan natijalarini o'z ichiga oladigan bo'lim;
- **mazmunli** – bu dasturning umumiy mazmunini ifodalovchi va bolalar shaxsining to'laqonli rivojlanishini ta'minlovchi bo'lim;
- **tashkiliy** – bu dasturning moddiy-texnik ta'minoti ta'rifini, ta'lim va tarbiyaning metodik materiallar va vositalar bilan ta'minlanganligini, kun tartibini, shuningdek, tadbirlar, bayramlar, rivojlantiruvchi muhitni o'z ichiga oluvchi bo'lim.

Dastur MTTning pedagogik kengashida muhokama qilinadi va direktor buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

TA'LIM DASTURINING NAMUNAVIY TUZILMAVIY ELEMENTLARI:

1.	Titul varag'i	- qachon va kim tomonidan tasdiqlangan, dastur kim bilan kelishilgan; - maktabgacha ta'lim tashkilotining to'liq nomi va turi ko'rsatilgan dasturning nomi; - mualliflarning F.I.SH, lavozimi; - aholi punkti nomi, ishlab chiqilgan yil, ishlab chiqilgan dastur turi; - MTT direktori tomonidan tasdiqlanadi
-----------	----------------------	--

TAVSIYALAR

Ta'lim dasturining titul varag'ida quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatish tavsiya etiladi:

- varaqlarning yuqori o'ng burchagida dastur qachon va kim tomonidan tasdiqlanganligi haqida ma'lumot ko'rsatiladi (masalan, pedagogik kengash tomonidan ... sana, ... yildan);
- maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining muhri bilan tasdiqlanadi;
- sarlavha sahifasining markaziy qismida, qoida tariqasida, maktabgacha ta'lim tashkilotining to'liq nomi va uning turi ko'rsatiladi (masalan, "Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani "Yulduzcha" umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim dasturi");
- maktabgacha ta'lim tashkiloti nomi ostida dastur mualliflari (MTT direktori, metodist, psixolog, logoped-defektolog va pedagoglar), yoki ijodiy jamoa, shu jumladan, boshqa ta'lim tashkilotlari mutaxassislari (ilmiy rahbar, tuman maktabgacha ta'lim bo'limi mutaxassisi) ko'rsatiladi.
- titul varag'ining pastki qismida maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan aholi punktining nomi va ta'lim dasturi ishlab chiqilgan sana ko'rsatiladi;
- titul varag'ida boshqa ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin, masalan dastur hududiy maktabgacha ta'lim boshqaruv organlari tomonidan kelishilgan bo'lishi mumkin, bu holda tafsilotlar dasturning yuqori chap qismiga joylashtiriladi.

Pedagogik kengash tomonidan
qabul qilindi:

Bayon №__ sana_____

Tasdiqlandi:

MTT direktori №__ «_____»

F.I.SH

№ _____ maktabgacha ta'lim tashkiloti

DASTURI

Tuzuvchi:

Familiya, ism, otasining ismi _____

Malaka toifasi _____

Pedagogik staji _____

Lavozimi _____

20 _____r.

2.	Mundarija	sahifalar ko'rsatilgan holda dasturning barcha qismlari: paragraflar, bo'limlar nomi, adabiyotlar va ilovalar ro'yxati, matnda mavjud bo'lgan barcha sarlavhalarni o'z ichiga oladi. Ularning ta'rifi ish mazmuniga to'liq mos kelishi, qisqa, aniq va izchil bo'lishi hamda uning ichki mantiqiy qonuniyatlarini aniq ifodalashi lozim.
3.	Maqsadli bo'lim	Maqsadli bo'lim " Umumiy qoidalar " ni o'z ichiga oladi, unda tushuntirish xati va MTT faoliyatidagi muammolar tahlili, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti haqida umumiy ma'lumotlar, faoliyat yo'nalishi, peragoglarning oldingi davrdagi (odatda oxirgi 3 yildagi) faoliyatining asosiy natijalari tavsifini o'z ichiga oladi.
3.1.	Tushuntirish xati	• MTT guruhleri faoliyatining yo'nalishi; • dasturni ishlab chiqishning asosiy konseptual yondashuvlari tavsifi; • dasturni ishlab chiqishga asos bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ko'rsatish ham muhimdir; • ta'limning amalga oshirilishi zarur bo'lgan maqsadlari va qadriyatlari; • dasturning nimalarga/kimlarga qaratilganligi; • dasturni amalga oshirish muddati.
3.2.	Taklif etilayotgan dasturning dolzarbligi	Dastur yaratish (tanlash) zarurligini asoslash. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim dasturining muayyan turini ishlab chiqish yoki tanlash uchun nima asos bo'ladi? • bolalar kontingentining ehtiyojlari; • ota-ona, mahalla buyurtmasi; • hududning madaniy-ma'rifiy xususiyatlari; • pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan mualliflik uslubiy ta'minot orqali guruhda amalga oshirilayotgan ta'lim mazmunini kengaytirish imkonini beradigan maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislari faoliyatining xususiyatlari, ularning malaka darajasi.
3.3.	Dasturning maqsadi *, qadriyatlari ** va vazifalari	Masalan, • bolalar bilan pedagogik ishlarni insonparvarlashtirish; • "kattalar - bola" munosabatlarini insonparvarlashtirish; • o'yin – bu bolalar hayotini tashkil qilish usuli; • kognitiv-nutq, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish, bolalarning ijodiy, badiiy qobiliyatlarini namoyon qilish va rivojlantirish uchun muqobil sharoitlarni yaratish; • bolaning hayotini, rivojlanish sharoitlarini maqsadga muvofiq tashkil etish; • "oila – MTT – maktab" o'rtasidagi uzluksizlik.

* Ta'lim dasturida amalga oshiriladigan maqsadlar umumiy ta'lim maqsadlarini aniqlashtirishni nazarda tutgan holda turlicha bo'lishi mumkin, biroq uning aniq variantidan qat'iy nazar tarbiyalanuvchilarni o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va sog'lomlashtirish uchun shart-sharoitlarni amalga oshirishga qaratilgan. MTTning maqsad va vazifalari uning Nizomi hamda amalga oshiriladigan dasturlar va texnologiyalarga muvofiq ravishda belgilanadi.

** Qadriyatlar, odatda, ta'limning umumiy ideologik yo'nalishlariga mos keladi (bolaning har tomonlama rivojlanishi, axloqiy ong va xulq-atvorni tarbiyalash, sog'lom turmush tarzi, shaxsning umumiy madaniyatini shakllantirish va boshqalar).

3.4.	Muammolarni tahlil qilishga yo'naltirilgan faoliyat	• ta'limga ijtimoiy buyurtmaning xususiyatlari; • pedagoglarning asosiy yutuqlari va muammolarini tavsiflash (<i>tarbiyalanuvchilarni sog'lomlashtirish, ta'lim berish, tarbiyalash va rivojlantirishning individual natijalarini baholash</i>).
4.	Mazmunli bo'lim	bola rivojlanishining asosiy yo'nalishlariga, ta'lim va tarbiya jarayoni mazmuni va natijalariga, mintaqaviy komponentga, amalga oshirish uchun ta'lim va tarbiya jarayoni tashkil etish shakllariga muvofiq ta'lim va tarbiya jarayoni tavsifini o'z ichiga oladi.
4.1	Dasturiy-uslubiy majmua	• amalga oshirilayotgan dasturlar (<i>asosiy va qo'shimcha</i>); • ta'lim texnologiyalari.

**TAVSIYALAR**

“Dastur-uslubiy majmua” bo'limida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari tomonidan qaysi ta'lim texnologiyalari joriy etilishini ham ko'rsatish tavsiya etiladi. Qoida tariqasida, ular rivojlanishning asosiy yo'nalishlari bilan belgilanadi va faqat barcha bolalar bilan ishlashda qo'llaniladi, masalan:

Rivojlanish sohalari	Ta'lim texnologiyalari (misollar)
Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish	Raqsbadiiy gimnastika – o'yin gimnastikasi, o'yin raqsi. Mashqlarning no'anaviy turlari – barmoq gimnastikasi, musiqali-harakatli o'yinlar, o'yin stretchingi, sayohat o'yinlari va boshqalar.
Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Musiqiy terapiya, ritmik improvizatsiya, art terapiya, ertak terapiyasi va boshqalar.
Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari	O'yinni almashtirish, tasviriy hikoyalar tuzish, qayta hikoya qilish, o'yin mashqlari, ertaklar to'qish, o'xshatish (metafora) tuzish, rasm asosida ijodiy hikoyalar tuzish, mnemotexnika va boshqalar.
Bilish jarayonining rivojlanishi	Loyiha usuli, tadqiqot va ijodiy loyihalar, rolli o'yinli loyihalar va boshqalar.
Ijodiy rivojlanish	Rasm chizishning no'anaviy usullari, loydan yasash, applikatsiyalar. Ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi (IMHQN) va boshqalar.

Faoliyatning ustuvor yo'nalishiga ega bo'lgan MTTda ish profili tegishli dasturlar va texnologiyalar bilan tasdiqlanishini e'tiborga olish kerak (masalan, ekologik yo'naltirilgan MTT lar dastur va texnologiyalarida badiiy-ijodiy emas, ekologik mazmun ustunlik qiladi).

Shuningdek, ushbu bo'limda keng qamrovli-mavzuli rejalashtirishni asosiy ta'lim sohalarini amalga oshirishni hisobga olgan holda taqdim etish tavsiya etiladi. Ushbu kichik bo'limning yoritilishi haftaning mavzusini o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari bilan har xil turdagi faoliyat, shakllarda ochib beradigan integratsiyalashgan modelni nazarda tutadi.

Keng qamrovli-mavzuli rejalashtirish MTTning yo'nalishi va mintaqaviy hamda etnik-madaniy tarkibiy qismlarni hisobga olgan holda, MTTning ixtiyoriga ko'ra jadval shaklida taqdim etilishi mumkin. Mavzuli rejalashtirish *** (bolalar rivojlanishining asosiy sohalarini amalga oshirishni hisobga olgan

*** Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining O'MK tomonidan 2018-yil 30-avgust №1-sonli bayonnoma bilan tasdiqlangan.

holda). Ushbu kichik bo'limning yoritilishi haftaning mavzusini o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari bilan har xil turdagi faoliyat, shakllarda ochib beradigan integratsiyalashgan modelni nazarda tutadi. Keng qamrovli-mavzuli rejada dasturning bo'limlari va mavzularini o'rganish ketma-ketligi yoritadi. O'quv faoliyatining taqsimlanishi ko'rsatiladi. Bolalar bilan ishlash shakllari va yakuniy tadbirlar ko'rsatiladi.

Bola rivojlanishining asosiy sohalariga muvofiq ta'lim va tarbiya jarayonining tavsifi:

- **jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish**
- **ijtimoiy va hissiy rivojlanish**
- **nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari**
- **bilish jarayonni rivojlantirish**
- **ijodiy rivojlanish.**

Shuningdek, unda tarbiyalanuvchilarning yoshi va individual psixologik xususiyatlarini, ularning ta'lim ehtiyojlari, motivlari va qiziqishlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda dasturni amalga oshirishning o'zgaruvchan shakllari, usullari va vositalarining tavsifini; dasturda ko'zda tutilgan, bolalar rivojlanishidagi buzilishlarni professional korreksiyasiga oid ta'lim faoliyatini tavsiflovchi, alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning moslashtirilgan dasturini yoritish nazarda tutilgan.

Dastur turli faoliyatlarda bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanish sohalarining taxminiy mazmunini belgilaydi, masalan:

- **o'yinli** (syujetli-rolli o'yin, qoidali va boshqa o'yin turlari);
- **kommunikativ** (kattalar va boshqa bolalar bilan muloqot va o'zaro munosabat);
- **kognitiv tadqiqotlar** (kuzatish va ular bilan o'zaro ta'sir qilish jarayonida tabiiy va ijtimoiy dunyoni tadqiq qilish va bilish).

Shuningdek, bolalar faoliyatining quyidagi turlari:

- badiiy adabiyot va folklorni idrok etish;
- o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish va elementar maishiy ishlar (xonada va tashqarida);
- turli materiallardan, shu jumladan konstruktor, modul, qog'oz, tabiiy va boshqa materiallardan qurish-yasash;
- tasviriy (chizish, loydan yasash, applikatsiya);
- musiqiy (musiqiy asarlarning ma'nosini idrok etish va tushunish, qo'shiq aytish, musiqiy va ritmik harakatlar, bolalar cholg'u asboblari bilan chalish);
- harakatli faoliyat (asosiy harakatlarni o'zlashtirish) shakllari.

MTT ish yo'nalishiga asoslanib, u quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalar uchun ishlab chiqilgan o'zgaruvchan ta'lim yo'nalishlari (MTTda bo'lishning muqobil tartiblari, jismoniy faoliyat tartiblari, moslashtirilgan o'quv tartiblari);
- tarbiyalanuvchilarga individual yordam ko'rsatish uchun mutaxassislarni muvofiqlashtirish va ularning o'zaro hamkorligi.
- bolalar bilan sog'lomlashtirish ishlari tizimi, ko'ngilochar tadbirlar dasturi, maktabgacha ta'lim tashkiloti muayyan ixtisoslikka ega bo'lsa, tashxis va sog'lomlashtirish guruhlarini bo'yicha farqlanishi;
- guruhning ta'lim faoliyatida (o'qitishda, sog'lomlashtirishda, tuzatish va rivojlantirish ishlarida, ta'lim natijalarini diagnostika qilishda) maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarni muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim ishlarini individuallashtirishni ta'minlaydigan ixtisoslashtirilgan, ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (bu o'z faoliyat profiliga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga xos) tarbiyalanuvchilar uchun individual ta'lim yo'nalishlari (ta'lim, sog'lomlashtirish, korreksion-rivojlantiruvchi), yoki bolalar bilan individual ishlash vositalari (individual mashg'ulotlar, kuzatuv xaritalari, individual tashrif tartibi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislari tomonidan ota-onalarning individual maslahatlari va boshqalar) ham taqdim etilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan individual ish, asosan, bolalarning dasturiy bilimlarini rivojlantirish diagnostikasi natijalari asosida quriladi va kalendar rejalashtirishda o'z aksini topadi.		
5.	Tashkiliy bo'lim	Mazkur bo'limda kun tartibi, o'quv yili tuzilmasi, ta'lim va tarbiya jarayoni jadvali (me'yoriy hujjatlarga muvofiq), yoshni hisobga olgan holda rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish, tarbiyalanuvchilarning yoshi va individual xususiyatlari, ularning ta'lim ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan ravishda dasturni amalga oshirishning turli shakllari, metod va vositalarining qisqacha ta'rifi beriladi. Shuningdek, turli xildagi faoliyatning o'ziga xos psixologo-pedagogik xususiyatlari, tarbiyalanuvchilarning oilalari bilan o'zaro hamkorlik turlari ifodalanishi mumkin.
5.1.	Bolalar bilan ta'limiy ishlar tizimi	- yosh guruhlari bo'yicha umumiy kun tartibi; - ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari va usullari; - umumiy o'quv yuklamasi (<i>darslar taqsimoti, markazlarda ishlash</i>). Kun tartibini tashkil etish – SanPiNga muvofiq bolalarning guruhda bo'lishi. Mazkur guruhning yosh xususiyatlari, maktabgacha ta'lim tashkilotining xususiyatlari, SanPiN talablarini hisobga olgan holda, maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lishining batafsil tartibi ilova qilinadi. Qo'shimcha ravishda quyidagilarni ilova qilish mumkin: - harakatlar tartibi; - korreksion mashg'ulotlar, to'garaklar, seksiyalar jadvali; - bolalarni chiniqtirish tartibi va boshqalar.
5.2.	Ota-onalar va ijtimoiy hamkorlar bilan o'zaro munosabatlar shakllari	Bu bandda ota-onalar va ijtimoiy hamkorlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini yaratadigan faoliyatning turli shakllari va usullarini taqdim etish tavsiya etiladi: - maktabgacha ta'lim tashkilotining ijtimoiy-madaniy muhitining xususiyatlari, oila bilan o'zaro munosabatlarning shakllari va usullari; - pedagoglarning ijtimoiy-madaniy loyihalari. - MTT pedagoglarning asosiy ijtimoiy sheriklari bilan o'zaro munosabatlarning batafsil yoritilishi (<i>ma'lum yo'nalishlarga ega MTT uchun</i>); - tarbiyalanuvchilarning ijtimoiylashuvi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish, ta'limning uzluksizligi va ketma-ketligini ta'minlashga qaratilgan pedagoglarning ijtimoiy-madaniy loyihalari taqdim etiladi. Ushbu ma'lumot haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun "Oila va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik" qo'llanmasiga qarang. Ota-

		onalar va ijtimoiy hamkorlar bilan o'zaro munosabatlar shakllari jadval shaklida taqdim etilishi mumkin. Batafsil ma'lumot bilan "Oilalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik" qo'llanmasida tanishishingiz mumkin.
6.	Dasturni amalga oshirish shartlari	Bu bo'limda moddiy-texnik vositalar bilan jihozlanganlik, o'quv-uslubiy ta'minlanganlikni (<i>dasturlar, texnologiyalar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-uslubiy va o'quv adabiyotlari, bolalar va ota-onalar uchun adabiyotlar, internet resurslari, o'quv kompakt diskleri, didaktik materiallar, hujjatlar</i>) taqdim etish tavsiya etiladi.
6.1.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim muhitining xususiyatlari	- rivojlanish muhitining individual yo'naltirilganligi (<i>uni ta'minlash shartlari</i>); - rivojlanish markazlarini tashkil etish; - asosiy jihozlar; - o'quv-uslubiy ta'minot; - bola rivojlanishining muhim sohalariga qaratilgan asosiy didaktik va uslubiy qo'llanmalarning xususiyatlari.

**TAVSIYALAR****Ta'lim dasturining mazkur bo'limini to'ldirishda quyidagilarni ko'rsatish muhimdir**

- MTT rivojlanish muhitida foydalaniladigan yaxlit asosiy komponentlar (*guruh, suv havzasi, tasviriy san'at studiyasi, tabiat xonasi va boshqalar*);
- MTT binosi va yer maydonida joylashgan foydalanilayotgan asosiy jihozlar.

Masalan, u jadval shaklida taqdim etilishi mumkin:

№	MTT binosi va xonalari jihozlari	MTT yer maydonining jihozlari
1.	Guruhlarda mavjud bo'lgan barcha jihozlar ko'rsatiladi	MTTning o'yin va sport maydonchalarida mavjud bo'lgan barcha jihozlar ko'rsatiladi
2.		
...		

Jihozlar ro'yxatiga qo'shimcha ravishda, qo'llaniladigan uslubiy va didaktik yordamning tavsifi – o'quv dasturini bu bo'limining muhim qismi bo'lib hisoblanadi, chunki haqiqiy ta'lim va tarbiya jarayonining mazmunini aynan shu belgilab beradi. Mumkin bo'lgan barcha ro'yxatlardan pedagoglarga faqat eng zarur jihozlarni ko'rsatish tavsiya etiladi, bu ularni davlat talablariga muvofiq bolalar rivojlanishining asosiy sohalariga ham yo'naltiradi.

Masalan, u jadval shaklida taqdim etilishi mumkin

№	Rivojlanish sohalar	Asosiy metodik qo'llanmalar	Asosiy didaktik ta'minot
1	Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish	Pedagoglar foydalanadigan uslubiy qo'llanmalar ko'rsatiladi	Tarbiyalanuvchilar bilan ishlashda qo'llaniladigan asosiy didaktik materiallar, o'yinlar ko'rsatiladi
2	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish		
3	Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari		
4	Bilish jarayonning rivojlanishi		
5	Ijodiy rivojlanish		

6.2.	Dasturni amalga oshirish shartlari	- dastur qaysi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanishini ko'rsatish; - dastur maqsadlarini amalga oshirish sifati; - bolalarni sog'lomlashtirish, ta'lim va tarbiya berish, rivojlantirish va korreksiyalashning individual natijalarini monitoring qilish; - pedagoglarning kasbiy o'sishi va individual yutuqlari dinamikasi; - agar mavjud bo'lsa innovatsion ishlarning reja-xaritasi, innovatsion loyihalarni amalga oshirishning asosiy natijalari.
7.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	Ishni tayyorlashda foydalanilgan manbalar haqidagi bibliografik ma'lumotlar kiritiladi

**TAVSIYALAR****Ro'yxatda dasturni ishlab chiqishda foydalanilgan adabiyotlar ko'rsatiladi.**

Kitob yoki maqola haqidagi qisqa bibliografik ma'lumot o'z uchiga quyigilarni jamlaydi:

- muallifning familiyasi, ismi, sharifi;
- sarlavha;
- nashr qilingan joy, nashriyot, chop etilgan yili;
- sahifalar soni.

8.	Dasturdagi ilovalar	Ushbu bo'limda dastur uchun nazariy materialni tushuntira oladigan ilovalar ko'rsatilgan
----	----------------------------	--

**TAVSIYALAR****Ushbu bo'limda quyidagilar ko'rsatilishi mumkin:**

- mashg'ulot ishlanmalari, tadbirlar, bayramlar ssenariylari
- pedagoglarning keng qamrovli faoliyatini aks ettiradigan (*reja*) ishchi dastur (*tarbiyachi, logoped/defektolog, psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi va boshqalar*);
- o'yinlar va o'yin mashqlari tavsifi;
- pedagog va ota-onalar uchun mahorat darslari ssenariylari;
- tarbiyalanuvchilar oilalari bilan hamkorlikning turli shakllari (*maslahatlar, davra suhbatlari, treninglar, seminarlar*).

2-ILOVA

MTT guruhlarining namunaviy kun tartibi

Bolalar to'liq kun davomida bo'ladigan guruhning namunaviy kun tartibi

№	Kun tartibi	Vaqtning taxminiy taqsimoti	Vaqt (daqiqada)
1.	Bolalarni qabul qilish, erkin o'yin faoliyati, ertalabki badantarbiya	7:30 – 8:20	50
2.	Nonushtaga tayyorgarlik, nonushta	8:20 – 8:45	25
3.	Ertalabki davra suhbat	8:45 – 9:00	15
4.	Ta'lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda)	9:00 – 9:40	40 Har bir mashg'ulot va erkin faoliyat davomiyligi 15-20 daqiqa
5.	Hafta mavzusi bo'yicha rivojlanish markazlarida bolalar tanloviga ko'ra o'yin asosidagi ta'lim va tarbiya jarayoni	9:40 – 10:30	50
6.	Birinchi sayr (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatli o'yinlar, mustaqil va individual faoliyat)	10:30 – 11:30	60
7.	Sayrdan qaytish [kiyim almashtirish, gigienik tadbirlar, individual faoliyat (<i>zarurat bo'lganda, logoped/defektolog, psixolog, musiqa rahbari</i>)]	11:30 – 12:00	30
8.	Tushlikka tayyorgarlik, tushlik	12:00 – 12:30	30
9.	Guruh xonasida erkin o'yin faoliyati	12:30 – 13:00	30
10.	Uyquga tayyorgarlik, kunduzgi uyqu <i>Uyqusiz guruhlarda: bolalarning erkin va tinch o'yin faoliyati, bolalar bilan individual ishlash, badiiy adabiyot o'qish</i>	13:00 – 15:00	120
11.	Tetiklashtiruvchi gimnastika, havo va suv muolajalari	15:00 – 15:10	10
12.	Ikkinchi tushlikka tayyorgarlik, ikkinchi tushlik	15:10 – 15:30	20
13.	Ta'lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda)	15:30 – 16:10	40 Har bir faoliyat turining davomiyligi 15-20 daqiqa
14.	Erkin o'yin faoliyati	16:10 – 16:50	40

No	Kun tartibi	Vaqtning tax- miniy taqsimoti	Vaqt (daqiqada)
15.	Ota-onalarning iltimosiga binoan qo'shimcha ta'lim xizmatlari (to'garaklar) va bolalar bilan individual ishlash	16:10 – 16:50	40
16.	Kechki davra suhbat/kun refleksiyasi	16:50 – 17:10	20
17.	Ikkinchi sayr, erkin o'yinlar	17:10 – 17:55	45
18.	Ota-onalar bilan ishlash va bolalarning uyga ketishi	17:30 – 18:00	30

Eslatma: Pedagog hafta mavzusiga ko'ra ta'lim va tarbiya jarayoni shakli (katta, kichik guruhda, individual va rivojlanish markazlarida)ni belgilaydi. Bolalarning MTTda bo'lish vaqtiga qarab hamda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish mazmuni, joylashuvi va ish tartibini tashkil etishga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq o'zining kunlik ish tartibini ishlab chiqishi mumkin.

Shuni esda tutish kerakki, pedagogga ota-onalarni bolaning rivojlanishi to'g'risida muntazam ravishda xabardor qilish tavsiya etiladi.

Ertalabki davra suhbat – bu kunning boshlanishi, bolalarning boshlangan yangi kundan zavqlanish, o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashish, yangiliklarni bilish (bugun ular nima qilishlari), birgalikdagi rejalar, muammolarni muhokama qilish va qoidalarni kelishish uchun yig'ilishadi.

Kechki davra suhbat / o'tgan kun refleksiyasi – bolalar bilan kun davomida eng esda qolarli va eng qiziqarli bo'lgan amallarni eslash, amalga oshirilgan ishlarni muhokama qilish va umumlashtirish hamda ertangi kun uchun tadbirlarni rejalashtirish)

Bolalar uchun ochiq havoda sayrning kunlik davomiyligi kamida 3-4 soatni tashkil etiladi. Bu harakat kuniga 2 marta tashkil etiladi: kunning birinchi yarmida - tushlikdan oldin va kunning ikkinchi yarmida - kunduzgi uyqudan keyin yoki bolalar uyga ketishidan oldin.

Birinchi sayr – pedagog tomonidan tashkil etiladi, u asosiy faoliyat turlari (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatli o'yin, mustahkamlash, erkin faoliyat)larni o'z ichiga olib, hafta mavzusiga mos tashkil etiladi.

Ikkinchi sayr – iqlim sharoitiga (ochiq havoda, resurslarga ega rivojlanish markazlarida) ko'ra bolalarning tanlovi bo'yicha erkin o'yin faoliyati.

Qo'shimcha pullik ta'lim xizmatlari ota-onalarning iltimosiga binoan asosiy ta'lim va tarbiya jarayonidan tashqari amalga oshiriladi, kunning ikkinchi yarimida ular qo'shimcha ta'lim pedagogi bilan bir vaqtning o'zida boshqa xonada o'tkazilishi mumkin, shuningdek, belgilangan vaqtda guruh pedagogi bolalarning erkin o'yin faoliyatini kuzatadi, shuningdek, individual ishlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya muqobil shakllarining namunaviy kun tartibi

№	Режим дня	Vaqtning taxminiy taqsimoti	Vaqt (daqiqada)
1-smena 8:30-12:40 (3,5-4 soat)			
1.	Bolalarni qabul qilish, ertalabki ko'rik, ertalabki badantarbiya	8:00 – 8:30	30
2.	Ertalabki davra suhbat	8:30 – 8:50	20
3.	Ta'lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda)	8:50 – 10:30	100 Har bir mashg'ulot va erkin faoliyat 20 daq.
4.	Hafta mavzusi bo'yicha rivojlanish markazlarida bolalar tanloviga ko'ra o'yin asosidagi ta'lim va tarbiya jarayoni	10:30 – 11:10	40
5.	Nonushta	11:10 – 11:25	15
6.	Kun refleksiyasi	11:25 – 11:40	15
7.	Sayr (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatli o'yinlar, mustaqil va individual faoliyat)	11:40 – 12:10	30
8.	Ota-onalar bilan ishlash va bolalarning uyga ketishi	12:10 – 12:40	30
9.	Pedagoglar uchun tushlik tanaffus va ikkinchi smena mashg'ulotlariga tayyorgarlik	12:40 – 13:40	60
2-smena 13:40-18:20 (3,5-4 soat)			
1.	Bolalarni qabul qilish, ko'rikdan o'tkazish, badantarbiya mashqlari	13:40 – 14:10	30
2.	Umumiy davra suhbat	14:10 – 14:30	20
3.	Ta'lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda)	14:30 – 16:10	100 Har bir mashg'ulot va erkin faoliyat 20 daq.
4.	Rivojlanish markazlarida hafta mavzusi bo'yicha bolalar tanloviga ko'ra o'yin asosidagi ta'lim va tarbiya jarayoni	16:10 – 16:50	40
5.	Yengil tamaddi	16:50 – 17:05	15
6.	Kun refleksiyasi	17:05 – 17:20	15
7.	Sayr (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatli o'yinlar, mustaqil va individual faoliyat)	17:20 – 17:50	30
8.	Ota-onalar bilan ishlash va bolalarning uyga ketishi	17:50 – 18:20	30

Eslatma: maktabgacha ta'lim va tarbiyaning muqobil shakllariga maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar, mobil guruhlar, qayerda faoliyat yuritishidan qat'iy nazar, 6-7 yoshdagi bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash guruhlar kiradi.

3-ILOVA

Namunaviy o'quv reja

Kichik (3 yoshdan 4 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori

№	Bolalar faoliyati turlari	O‘quv yili mobaynida			Sog‘lomlashtirish davri mobaynida		
		bir hafta ichida	bir oy ichida	o‘quv yili davomida	bir hafta ichida	bir oy ichida	Sog‘lomlash-tirish davrida
1.	Jismoniy tarbiya	1	4	36	Sport va ko‘ngilochar o‘yinlar - 1	1	3
	Sayrda	1	4	36		4	12
2.	Musiq	2	8	72	Ko‘nilochar o‘yinlar	1	3
3.	Xoreografiya	2	8	72	Raqsli ko‘ngilocharlar	1	3
4.	Tasviriy faoliyat	1	4	36	1	4	12
5.	Konstruksiyalar tuzish/ applikasiya (navbatma-navbat)	1/1	2/2	18/18	1/1	4/4	12/12
6.	Loydan yasash	1	4	36	1	4	12
7.	Sensor tarbiya	1	4	36	Mantiqiy o‘yinlar	1	3
8.	Elementar matematika	1	4	36	Mantiqiy o‘yinlar	1	3
9.	Fan va tabiatshunoslik asoslari / ekologiya	1/1	2/2	18/18	Tajribalar, o‘yinlar, viktorinalar – 1	4	12
10.	Nutq, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish	1	4	36	1	4	12
11.	Badiiy adabiyot	1	4	36	O‘yinlar, viktorinalar – 1	4	12
		Kunduzgi uyqu ko‘zda tutilmaganda uyqudan oldin o‘qiladigan badiiy asarlarni sayr paytida o‘qish tavsiya etiladi.					
Mintaqaviy komponent		Mintaqaning tabiiy-geografik va madaniy-tarixiy o‘ziga xosligini hisobga olgan holda, o‘quv rejasini 20% gacha MTT komponenti bilan shakllantirish tavsiya etiladi, MTT ixtiyoriga ko‘ra faoliyat turlaridan birini almashtirish ko‘zda tutilgan.					
Jami		14	56	504	6	30	90

O'rta (4 yoshdan 5 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori

№	Bolalar faoliyati turlari	O’quv yili mobaynida			Sog’lomlashtirish davri mobaynida		
		bir hafta ichida	bir oy ichida	o’quv yili davomida	bir hafta ichida	bir oy ichida	Sog’lomlashtirish davrida
1.	Jismoniy tarbiya	1	4	36	Sport va ko’ngilochar o’yinlar – 1	1	3
	Sayrda	1	4	36		4	12
2.	Musiqqa	2	8	72	Ko’nilochar o’yinlar	1	3
3.	Xoreografiya	2	8	72	Raqsli ko’ngilocharlar	1	3
4.	Tasviriy faoliyat	1	4	36	1	4	12
5.	Konstruksiyalar tuzish/ applikasiya (navbatma-navbat)	1/1	2/2	18/18	1/1	2/2	6/6
6.	Loydan yasash	1	4	36	1	4	12
7.	Elementar matematika	1	4	36	Mantiqiy o’yinlar	1	3
8.	Fan va tabiatshunoslik asoslari / ekologiya	1/1	2/2	18/18	Tajribalar, o’yinlar, viktorinalar – 1	2/2	6/6
9.	Развитие речи, навыки чтения и письма	2	8	72	1	4	12
10.	Badiiy adabiyot	2	8	72	O’yinlar, viktorinalar – 1	4	12
		Kunduzgi uyqu ko’zda tutilmaganda uyqudan oldin o’qiladigan badiiy asarlarni sayr paytida o’qish tavsiya etiladi.					
Mintaqaviy komponent		Mintaqaning tabiiy-geografik va madaniy-tarixiy o’ziga xosligini hisobga olgan holda, o’quv rejasini 20% gacha MTT komponenti bilan shakllantirish tavsiya etiladi, MTT ixtiyoriga ko’ra faoliyat turlaridan birini almashtirish ko’zda tutilgan.					
Jami		15	60	540	7	32	96

Izoh: Atrof-muhit va tabiat bilan tanishish boshlang'ich ta'limning uzluksizligini ta'minlash va xalqaro tajribani hisobga olgan holda tabiatshunoslik va ekologiya asoslari bilan almashtirildi, chunki tabiatshunoslik tabiat ob'ektlari, hodisalari va jarayonlari haqidagi bilimlarning umumiylikini belgilaydi.

Katta (5 yoshdan 6 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori

№	Bolalar faoliyati turlari	O‘quv yili mobaynida			Sog‘lomlashtirish davri mobaynida		
		bir hafta ichida	bir oy ichida	o‘quv yili davomida	bir hafta ichida	bir oy ichida	Sog‘lomlashtirish davrida
1.	Jismoniy tarbiya	1	4	36	Sport va ko‘ngilochar o‘yinlar – 1	1	3
	Sayrda	1	4	36		4	12
2.	Musiqqa	2	8	72	Ko‘nilochar o‘yinlar	1	3
3.	Xoreografiya	2	8	72	Raqsli ko‘ngilocharlar	1	3
7	Gʻoyalar taklif etadi, tashabbuskorlik koʻrsatadi													
8	Samimiy va ochiq													
2.2	Kichik soha: Hissiyotlar va ularni boshqarish													
1	Asosiy hissiyotlar sabablarini tushu- nadi													
2	Agar kimnidir xafa qilsa, aybdorlik hissini koʻrsatadi													
3	Yaxshi yoki yomon hatti-harakatga baho berishga qodir													
4	Oʻyindagi gʻalaba onlarida shodlan- ishni biladi													
5	Oʻz hissiyotlari hamda kechinmala- rini doʻstlari va yaqin kishilari bilan oʻrtoqlashadi													
6	Qoʻrquv va xavf nimaligini tushunadi													
7	Hammabop asarlarni mamnuniyat bilan tinglaydi va ular borasida oʻz hissiy munosabatini bildiradi													
2.3	Kichik soha. Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot													
1	Muloqotda oʻz fikri, hissiyotlari va tasavvurlarini namoyon etadi													
2	Guruhda va oilada tashkil etiladigan mehnat faoliyatida qatnashadi													
3	Iltimos yoki xabarni suhbatdoshiga yetkazishni biladi													
4	Mustaqil, kattalardan nisbiy mus- taqilligini namoyon etadi													
5	Yordam koʻrsatishga tayyor													

№	Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Peda- gog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
6	Tanish insonlar bilan suhbatga oson kirishadi													
7	Ijtimoiy axloq qoidalari va me'yor- lariga bo'ysunadi (<i>mumkin, mumkin emas, yaxshi, yomon, kerak</i>)													
8	Boshqa bolalar bilan barqaror do'stona aloqalar o'rnatadi													
3	Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari													
3.1	Kichik soha. Til va nutq													
1	Kuzatilayotgan voqea va hodisalarni tushuntiradi													
2	Umumlashtiruvchi so'zlardan to'g'ri foydalanadi (<i>mevalar, sabzavotlar, daraxtlar, qushlar, idishlar</i>)													
3	Predmetlarning o'ziga nisbatan joylashgan holatini tasvirlaydi (<i>mening oldimda, stolda</i>)													
4	So'zlarni ma'nosiga ko'ra to'g'ri qo'llaydi													
5	Nutqida asosiy so'z turkumlarini qo'llaydi													
6	Bir o'zakli so'zlarni (<i>namuna bo'yicha</i>) hosil qiladi (<i>mushuk - mushukcha - mushukvoy</i>)													
7	Grammatik jihatdan sodda va qo'shma gaplar tuzadi													
8	Suhbat qura oladi													
9	Kattalar yordamida ijodiy hikoya tuzadi													
10	Barcha tovushlarni to'g'ri va aniq talaffuz qiladi													
11	Chet tilini o'rganish ko'nikmalari shakllanadi													
12	Salomlashish va xayrlashish so'zlarini ishlatadi													
13	10 gacha sanoqni biladi													
14	Asosiy ranglar nomlarini biladi (<i>oq, sariq, qizil, yashil, ko'k, qora</i>)													
3.2	Kichik soha. O'qish malakalari													
1	So'zdagi birinchi tovushni biladi													
2	Kitobni mustaqil tarzda ko'rib chiqadi													

№	Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Peda- gog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
3	Tovushlar farqini biladi													
4	So'zlarga qofiyalar tanlaydi													
5	Nutqning dialogik shaklidan foydalanadi, savollar beradi													
6	She'rlarni yodlaydi va ifodali aytib beradi													
7	Sevimli adabiy asarlar, ertaklar, hikoyalarning nomi va mualliflarini biladi													
8	Ifodalilikning ohang vositalaridan to'g'ri foydalanadi													
9	Harflarga mos keladigan so'zlarni tanlaydi													
3.3 Kichik soha. Qo'l barmoqlari mayda motorikasi														
1	Chiziqli, ilgak va gajaklar yozadi													
2	Qog'oz varag'ini turli usullarda taxlaydi (<i>origami</i>)													
3	Bosma harflarni namunaga ko'ra yoza boshlaydi													
4	Barmoqlari yordamida turli mashqlar bajaradi													
5	Bo'yaladigan naqshlarni batartib shtrixlaydi													
6	Turli yuzaliklar (<i>nam qum, asfalt, taxta</i>)ga chizadi va yozadi													
7	Soch o'radi													
8	Mozaika yig'adi													
4 Bilish jarayonining rivojlanishi														
4.1 Kichik soha. Intellektual-bilish malakalari														
1	Rasm bo'yicha syujetlarni eslab qoladi va hikoya qiladi													
2	Izchil fikr yuritadi, xulosalar chiqaradi													
3	Hayvonlar yashaydigan joylar nomlarini aytadi (<i>baliq suvda, bo'ri o'rmonda yashaydi va h.k.</i>)													
4	Geografiyaga oid tushunchalarni biladi (<i>yer, dengiz, daryo, tog'lar</i>)													
5	Oddiy sabab-oqibat aloqalarini tushunadi (<i>yomg'ir yog'yapti – panaga o'tish kerak</i>)													
6	Ob'ektlarni tizimlashtiradi													

№	Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Peda- gog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
7	Sinash va xatolar orqali amaliy vazifalar yechimini topishga harakat qiladi (<i>mashinani yurgizish uchun kalitni burash kerak</i>)													
4.2	Kichik soha. Elementar matematik malakalar													
1	Geometrik shakllarni biladi va predmetlarda ularni ajratadi													
2	Predmetlarni uzunligi, eni, qalinligi, balandligi bo'yicha taqqoslaydi													
3	Predmetlar guruhini taqqoslaydi													
4	Muloqot vaqtida matematik atamalardan foydalanadi													
5	Belgilar tizimini biladi (<i>raqamlar va +, -, = belgilaridan foydalanib</i>)													
6	1dan 10gacha sonlarni to'g'ri va teskarisiga sanaydi													
7	Predmetlarni soni va umumiy miqdori bo'yicha taqqoslaydi													
8	Predmetlar guruhlarning tengligi va tengsizligini aniqlaydi va ularni o'zaro taqqoslaydi													
4.3	Kichik soha. Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat													
1	Tabiat hodisalarining turli omillarga bog'liqligini tushunadi													
2	Tabiatdagi o'zgarishlar sababini tushunib berishi mumkin (<i>m-n, qorning erishi</i>)													
3	Odamlarning atrofida tabiatga ta'sirini tushunadi (<i>ekin ekish, hosil yig'ish</i>)													
4	Tabiiy materialdan rasm bo'yicha turli buyumlar yasashni biladi, ish bosqichlarini rejalashtiradi													
5	Mustaqil ravishda modellar yaratish va konstruksiyalashni amalga oshirish mumkin													
6	Jonli va jonsiz tabiatni farqlaydi													
7	Tabiatning insonlar hayotidagi ahamiyatini anglaydi													
5	Ijodiy rivojlanish													
5.1	Kichik soha. Dunyoni badiiy tasavvur etish													
1	Musiqasi asariga hissiy munosabat bildiradi													

№	Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Peda- gog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
2	Musiqa ohangiga mos ravishda turli harakatlar o'ylab topishi mumkin													
3	Badiiy asarlar qahramonlari rolini o'ynashi mumkin													
4	Amaliy san'at turlari borasida dastlabki tushunchalarga ega													
5	O'z loyihalarini yaratish g'oyalarini bildiradi													
6	Musiqiy uslublarni ajrata biladi													
7	Kichik ssenariylar tuzib sahna ko'rinishini tashkil eta oladi													
8	Tabiat materiallardan buyumlar yasaydi													
9	Kostyumlarni bezatishi, guldastalar yasashi, oddiy retseptlar bo'yicha ovqat tayyorlashi mumkin													
5.2	Kichik soha. Badiiy-ijodiy qobiliyatlar													
1	Murakkab predmetlar rasmini chizadi va ularni bezakli naqshlar bilan bezatadi (<i>choynak, gilam, ro'molcha, lagan</i>)													
2	Xotira yoki tasavvuiga ko'ra syujet yaratadi													
3	Qog'oz va tabiat materiallardan applikativ bezaklar yaratadi (<i>tabriknomalar, xatcho'plar</i>)													
4	Atrof-muhit yoki o'z loyihalarini bezatadi													
5	Kesish, yirtish, taxlash yo'li bilan shakllarning turishi, o'rni va harakatlarini ifodalagan tarzda kichik syujetlar yaratadi													
6	Tengdoshlari bilan ijodiy o'yinlar yaratishi mumkin													
7	O'z ishlarida turli ifodalash vositalaridan foydalanadi													
8	Jamoaviy loyihalarda o'z g'oyalarini taklif etadi													



№1 maqsadlarni aniqlashtirish *(Oraliq kuzatishdan so'ng)*

Sana _____

Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi

1. _____
2. _____

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish

1. _____
2. _____

Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari

1. _____
2. _____

Bilish jarayonining rivojlanishi

1. _____
2. _____

Ijodiy rivojlanish

1. _____
2. _____

№2 maqsadlarni aniqlashtirish *(Yakuniy kuzatishdan so'ng)*

Sana _____

Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi

1. _____
2. _____

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish

1. _____
2. _____

Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari

1. _____
2. _____

Bilish jarayonining rivojlanishi

1. _____
2. _____

Ijodiy rivojlanish

1. _____
2. _____

IV. 6-7 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi

Bolaning familiyasi, ismi: _____ yoshi: _____

Tug'ilgan sanasi: _____ Jinsi: _____ (O'g'il /Qiz)

Pedagog: _____

Kuzda to'ldirilgan sana: _____ Qishda to'ldirilgan sana: _____

Bahorda to'ldirilgan sana: _____.

№	Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Peda- gog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
1	Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi													
1.1	Kichik soha: Yirik motorika													
1	Kolonna bo'ylab bittalab, ikkitalab, to'rttalab, doira, saf bo'lib yuradi													
2	Yurganda turli buyruqlarni bajaradi													
3	Yengil (shiddat bilan, to'siqlardan hatlab, yo'nalish va muvozanatini saqlagan holda) yuguradi													
4	Aylanib, oyoqlarini o'ngga, chapga tashlab turgan joyida sakraydi													
5	Turli usullar bilan arg'imchoqdan sakraydi													
6	Arqonli narvon, yo1g'on arqondan chirmashib chiqadi													
7	Ikki oyoqli velosipedda uchadi													
1.2	Kichik soha: Mayda motorika													
1	Buyumlarni o'xshatib, barmoqlari bilan ko'rsatadi (gul, qush, kapalak, qulfi)													
2	Arqondan turli tugunlar tugadi													
3	O'yin faoliyati davomida mayda o'yinchoqlar bilan o'ynaydi													
4	Belgilangan chiziq bo'ylab qog'ozni batartib yirta oladi													
5	Mayda bo'lakli mozaika va pazllarni yig'adi													
1.3	Kichik soha: Sensomotorika													
1	To'pni pastdan va boshidan oshirib otadi													
2	To'pni yerdan ilonizi qilib dumalatadi													
3	Chana, rolik, ikki oyoqli velosipedda uchadi													

№	Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Peda- gog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
4	Nishonni to'p bilan uradi (<i>bouling</i>)													
5	Gardish (obruv)ni qo'llari, oyoqlari, beli bilan aylantiradi													
6	Xalqalarni qoziqchaga otadi													
1.4	Kichik soha: Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik													
1	O'z tashqi ko'rinishiga e'tibor beradi													
2	Jismoniy mashqlarni mustaqil bajaradi													
3	Tabiat burchagi o'simliklar va jonzorlarni parvarishlaydi													
4	Sog'lik uchun zararli bo'lgan harakatlarni tushunadi (<i>chekish, ichkilikbozlik, olov bilan o'yinlar va hokazo</i>)													
5	MTTda, ko'chada va transportda o'zini tutish qoidalarini biladi													
6	Yo'lovchi va velosiped haydovchilari uchun yo'l harakati qoidalarini biladi													
7	Yong'in xizmati (101), militsiya (102), tez yordam (103), gaz xizmati (104) raqamlarini aytadi													
8	Xavfli vaziyatlarda o'zini qanday tutishni biladi va tushuntiradi													
9	Supermarket, shahar, qishloq va dalada yo'qolib qolganda o'zini qanday tutish kerakligini tushuntiradi													
2	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish													
2.1	Kichik soha: "Men" konsepsiyasi													
1	Mustaqillikka intiladi													
2	O'z jinsi (<i>gender</i>), oilaviy mansubligi haqida ijobiy his-tuyg'ularni tan oladi va his qiladi													
3	O'z millati, tili va madaniyatining asosiy elementlarini biladi													
4	Yuklanayotgan vazifalarni qabul qiladi va faollikni ko'rsatadi													
5	O'z qarorlarini qabul qila olish layoqatini namoyon qiladi													
6	Boshqalarga o'rnak bo'lishga intiladi													
2.2	Kichik soha. Hissiyotlar va ularni boshqarish													
1	O'z hissiyotlarini namoyon qilishni nazorat qiladi													

№	Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Peda- gog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
2	Turli ijtimoiy vaziyatlarda emotsional javob qaytaradi													
3	O'z hissiy holatini so'zlar bilan ifoda eta oladi													
4	Boshqa odamlar yoki adabiy asarlar qahramonlari hissiyotlari haqida gapiradi													
5	O'zini yomon his qilayotganlarga hamdard bo'ladi va ularni ovuntiradi													
2.3	Kichik soha. Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot													
1	Kattalar va tengdoshlari bilan osonlik bilan muloqotga kirishadi													
2	Qiyin vaziyatlarda konstruktiv yechim izlaydi													
3	Boshqalar xatti-harakatlari to'g'risida o'z taassurotlarini ifoda etadi													
4	Boshqalar muvaffaqiyatiga quvonish qobiliyatini namoyon qiladi													
5	Ziddiyatlarni hal qilishning bir nechta usulidan foydalanadi (tinchlantiradi, o'z o'yinchog'ini beradi, muloyim so'zlar aytadi)													
6	O'yinlar o'ylab topadi, syujetli-rolli o'yilarda qatnashadi, turli ertaklarni dramalshirishda qatnashadi													
3	Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari													
3.1	Kichik soha: Til va nutq													
1	Ona tilida gapiradi; gap bo'laklarini ravon, grammatik jihatdan to'g'ri ishlatadi													
2	Gapdagi sinonim va antonimlarni topib, berilgan so'zlarga ularni moslaydi													
3	Ko'p ma'noli so'zlarning turli ma'nolarini farqlaydi													
4	Turli gaplarni tuzadi													
5	O'z tajribasidan kelib chiqib, rasmga qarab mustaqil tarzda tasviriy hikoya tuza oladi													
6	Turli janrdagi adabiy asarlarni ifodali hikoya qiladi													
7	Guruhli muhokamalarda eshitib, suhbatga qo'shilib qatnashadi													
8	Topishmoqlarni topadi, qofiyalar tuzadi													

№	Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Peda- gog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
9	Gapirganda chet el so'zlarini ishlatadi; kichik she'rlar, qofiyalarni aytadi													
10	Yil fasllari nomlarini biladi (<i>bahor, yoz, kuz, qish</i>)													
3.2	Kichik soha: O'qish malakalari													
1	Boshqa bolalarga kitob mazmunini yoddan aytib beradi													
2	Muloqotda sodda va murakkab gaplardan foydalanadi													
3	So'zlarni bo'g'inlarga bo'ladi													
4	Bo'g'inli kartochkalar yordamida bo'g'inlardan so'zlar tuzadi													
5	Tovush, so'z, bo'g'in, gap to'g'risida tushunchaga ega													
6	Peshlavhadagi yozuvlar, kitoblar nomlari, rasmlar tagidagi yozuvlar va shu kabilarni o'qiydi													
7	Bolalar adabiyoti janrlarini biladi (<i>ertak, she'r, hikoyalar</i>)													
8	Mashhur bolalar yozuvchi va shoir-larini biladi													
3.3	Kichik soha: Qo'l barmoqlari mayda motorikasi													
1	To'g'ri chiziqlar, so'zlarni bosma harf-lar bilan va qisqa jummalarni yozadi													
2	Daftar chiziqlarini aniqlay oladi													
3	Rasmlarni to'g'ri joylashtiradi													
4	Nuqta-chiziqli rasmlarni qo'lini uzmasdan birlashtiradi													
5	Matoga naqshlar tikadi													
6	Harakatning «o'ziga» va «o'zidan» yo'nalishlarini to'g'ri mo'ljallaydi													
7	Turli materiallardan murakkab namunalar qirqadi													
4	Bilish jarayonining rivojlanishi													
4.1	Kichik soha: Intellektual-bilish malakalari													
1	Mustaqil tarzda atrof-muhit haqida axborot izlaydi													
2	Kuzatuvlar asosida umumlashtiradi va xulosalar qiladi													
3	Yil fasllari va voqealarni ketma-ketlik-da aytib beradi													

№	Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Peda- gog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
4	Rasmlar bo'yicha izchil xulosalar chiqaradi													
5	O'z mamlakati va uning ramzlari to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi													
6	O'z xalqining ba'zi milliy an'analari va urf-odatlarini biladi													
7	Bolalar ensiklopediyasidan foydalana oladi													
8	Predmetlarni tashqi va ichki belgilar (<i>rangi, shakli, hajmi, vazni, harakatlanish tezligi, vazifasiga qarab</i>) bo'yicha tasniflaydi													
4.2 Kichik soha: Elementar matematik malakalar														
1	Raqamlar va sonlarning hayotdagi ahamiyatini tushunadi; geometrik figuralar va shakllarni biladi													
2	20 gacha bo'lgan sonlar doirasida ba'zi matematik amallarni bajaradi													
3	10 gacha qo'shish va ayirishga doir sodda matematik masalalarni son va +, -, = belgilaridan foydalanib yechadi													
4	Son tartibi haqida tushunchaga ega bo'ladi													
5	Guruhlarning teng va tengsizligini tahlil qiladi (<i>Qancha ko'p? Qancha kam?</i>)													
6	Predmetlarni hajmi, balandligi, qalinligi bo'yicha ketma-ket taxlaydi													
7	Shartli belgi yordamida suyuq, sochiluvchan va qattiq jismlarni o'lchaydi													
4.3 Kichik soha: Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat														
1	Qurilmani mustaqil tarzda balandligi, uzunligi va eni bo'yicha o'lchaydi													
2	O'z qiziqish va kuzatuvlari bilan bog'liq savollar beradi													
3	O'z taxminlarini bildiradi, tushuntiradi va oldingi hamda hozirgi tajriba borasida umumlashmalar qiladi													
4	Tadqiqotdagi hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni ajratadi va qo'yadi													
5	Atrof-muhitni yaxshilashda ishtirok etish muhimligini tushunadi (<i>m-n, axlatni to'plash, uni saralash, daraxtlar va gullar ekish, elektr toki, suv va qog'ozni tejash</i>)													

№	Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Peda- gog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	
6	Turli resurslardan foydalangan holda, o'z kuzatuvlarini ifodalaydi va tasdiqlaydi													
5	Ijodiy rivojlanish													
5.1	Kichik soha. Dunyoni badiiy tasavvur etish													
1	She'rlarni ifodali o'qib berishga qodir													
2	Tanish asarlarni mustaqil ravishda hikoya qilib beradi, ularni sahnalash-tirishda ishtirok etadi													
3	She'riy va nasriy badiiy asarlarga hissiy munosabat bildiradi													
4	Musiqasi asarining kayfiyati va xarakterini aniqlashga qodir bo'ladi													
5	Bolalar yozuvchi, shoir, bastakorlarini biladi													
6	Tasviriy san'at turlarini farqlaydi													
5.2	Kichik soha. Badiiy-ijodiy qobiliyatlar													
1	Turli predmetlardan kompozitsiyalar yaratadi													
2	Yakka va jamoaviy tarzda qo'shiqlar kuylashi mumkin													
3	Harakatlarga go'zallik baxsh etgan holda raqsning o'z qarashidagi ko'rinishini o'ylab topishga qodir bo'ladi													
4	Musiqasi asboblari yakka (solo) holda yoki orkestr tarkibida chalishi mumkin													
5	O'z g'oyasini yaratadi va tatbiq etadi													
6	Maqsadga erishish uchun o'rnini bosuvchi sifatida turli predmetlardan foydalanadi													
7	Spektakllar qo'yishda o'z roli bilan qatnashadi													
8	Insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi													
9	Narsalardan ikkilamchi foydalanish borasida g'oyalar taklif etishi mumkin													

№1 maqsadlarni aniqlashtirish *(Oraliq kuzatishdan so'ng)*

Sana _____

Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi

1. _____
2. _____

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish

1. _____
2. _____

Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari

1. _____
2. _____

Bilish jarayonining rivojlanishi

1. _____
2. _____

Ijodiy rivojlanish

1. _____
2. _____

8-ILOVA

6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va boshlang'ich ta'lim uzluksizligini ta'minlash maqsadida **maktabgacha ta'lim tashkilotidan chiqishda** 6-7 yoshli bolaning **maktabga tayyorligi xaritasi** to'ldiriladi (faqat maktabgacha ta'lim tashkiloti bitiruvchilari uchun).

Maktabga tayyorlik deganda bolada tayanch kompetensiyalar va rivojlanish sohalarining kompetensiyalarini shakllanganligi tushuniladi. Ushbu xarita MTTning har bir bitiruvchisi uchun to'ldiriladi. Unda bola rivojlanishining beshta yo'nalishi bo'yicha erishgan natijalari ko'rsatiladi.

Pedagogga u yoki bu natija qay darajada aks ettirilganligini qayd etish taklif etiladi. Rivojlanishning beshta sohasi bo'yicha natijalar (bolaning kompetensiyalari) tavsiyalar va istaklar shaklida umumlashtiriladi, ma'lumot uchun yozma ravishda yetkaziladi va ota-onalarga topshiriladi.

Bolaning maktabga tayyorligi xaritasi ota-onalarning iltimosiga binoan 1-sinf o'qituvchisiga taqdim etilishi mumkin, bu tavsiya tarzida bo'lib, bolani maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'lim bosqichiga o'tishi, shuningdek, bolaning 1-sinfda ¹⁸ rivojlanishiga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda o'qituvchi uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu bolaning maktabga tayyorlik xaritasi quyidagilarga imkon beradi: maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonining muvaffaqiyati va samaradorligini aniqlaydi, boshlang'ich sinf o'qituvchisini bolaning boshlang'ich maktabda muvaffaqiyatli moslashishi va yanada samarali rejalashtirish uchun xabardor qiladi.

K – kuzatilmaydi yoki kamdan-kam kuzatiladi

B – ba'zida kuzatiladi

T – tez-tez kuzatiladi

D – doimiy ravishda kuzatiladi

¹⁸ Qarang: "ilk qadam" Davlat ta'lim dasturiga doir metodik qo'llanma // Maktabgacha ta'limda o'qitish jarayonini individuallashtirish. Maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar inklyuziyasi//32 b.//Toshkent//2020

6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi

№ _____ maktabgacha ta'lim tashkiloti

_____ viloyat _____ shahar _____ tuman

Bolaning familiyasi, ismi va sharifi: _____ Yoshi: _____

Tug'ilgan sanasi: _____ Jinsi: _____ (O'g'il / Qiz)

№	Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija	Kuzatiladi			
		K	B	T	D
1.	Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi				
1.1.	O'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi				
1.2.	Turli harakatchanlik faolligini uyg'un ravishda va maqsadli bajarishni biladi				
1.3.	Turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi				
1.4.	O'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi				
1.5.	Shaxsiy gigiena ko'nikmalarini qo'llaydi				
1.6.	Hayot xavfsizligi asoslari qoidalariga rioya qiladi				
2.	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish				
2.1.	O'z «Men»i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi				
2.2.	O'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi				
2.3.	O'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi				
2.4.	Kattalar va tengdoshlari bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi				
2.5.	Murakkab vaziyatlardan chiqishning amaliy yo'llarini topadi				
3.	Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari				
3.1.	Nutqni eshitadi va tushunadi				
3.2.	O'z nutqida to'g'ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap tuzilishlaridan foydalanadi				
3.3.	Ikkinchi tilni o'rganishga qiziqishi namoyon qiladi				
3.4.	Ikkinchi tilni egallash bo'yicha dastlabki bilimlarini ko'rsatadi				
3.5.	Badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon bo'ladi				
3.6.	So'zning lug'aviy, bo'g'inli va fonetik tuzilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi				
3.7.	Matn mazmunining turli shakllarini mustaqil tuza oladi va qayta hikoya qila oladi				
3.8.	Yozishning dastlabki ko'nikmalari va vositalaridan foydalanishni biladi				

4.	Bilish jarayonining rivojlanishi				
4.1	Bilim olishga faol qiziqishini namoyon etadi				
4.2.	O'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi				
4.4.	Predmetlar, voqealar va ko'rinishlar o'rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi				
4.5.	Raqaamlar, hisoblashni biladi va ularni hayotda qo'llaydi				
4.6.	Makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi				
4.7.	Elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi				
4.8.	Atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko'rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi				
5.	Atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g'amxo'r munosabatni namoyon etadi				
5.1.	San'at va madaniyatga qiziqish bildiradi				
5.2.	Milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi				
5.3.	San'atning ma'lum bir turiga bo'lgan afzalliklarni mustaqil ravishda ifodalaydi				
5.4.	Olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarni tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi				
5.5.	Insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi				

To'ldirilgan sana: «___»_____ 20___ yil

Pedagog: _____

(Imzo) (Ism-sharif to'liq)

9-ILOVA

Guruhlarda rivojlanish markazlarining taxminiy joylashuvi

Bolalarga yo'naltirilgan guruhda puxta o'ylangan va xavfsiz tashkil etilgan rivojlanish muhiti eng muhim rol o'ynaydi, bu pedagoglarga davlat o'quv dasturining maqsad va vazifalarini amalga oshirish va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkonini beradi. Guruh xonasini rivojlanish markazlari deb ataladigan kichik-kichik joylarga ajratish tavsiya etiladi. MTT pedagoglariga jadvalda guruhdagi rivojlanish markazlarining minimal soni ko'rsatilganligini tushunishlari tavsiya etiladi; hududning va MTTdagi ta'lim va tarbiya jarayoni mazmunining imkoniyatlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda guruhdagi boshqa rivojlanish markazlari tashkil etilishi mumkin.

Turli guruhlarda markazlar to'plami har xil bo'lishi mumkin, ammo davlat o'quv dasturi guruhdagi beshta asosiy rivojlanish markazlarini tavsiya qiladi: fan va tabiat; til va nutq; syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish; san'at; qurish, konstruksiyalash va matematika. Guruhda boshqa rivojlanish markazlarini ham tashkil etish mumkin, ularni tashkil etish bolalarning manfaatlariga, guruhning bo'sh makoniga va maktabgacha ta'lim tashkilotining moddiy-texnik imkoniyatlariga bog'liq. Bunday markazlar vaqtinchalik yoki faqat bolalar faoliyatining maxsus turlari (qum va suv markazi; pazandachilik markazi; musiqa markazi) uchun tashkil etilishi mumkin. Ta'lim muhitini yaratishda pedagoglar bolalar faol bo'lishi mumkin bo'lgan joylar mavjudligini ta'minlashi kerak.

Rivojlanish uchun mos jismoniy faollik uchun joylar. Bolalar jismoniy faollik orqali yanada samaraliroq o'rganadilar va kun davomida yuqori darajadagi jismoniy faollik, turfa xillik va stimurning o'zgarishiga extiyoj sezadilar.

Bolalar faoliyatining muayyan amaliy turlari uchun imkoniyat. Yosh bolalar suvda o'ynash, loydan pirog yasash, yog'ochdan narsalar yasash, qo'g'irchoqlarni yotqizish va hokazo kabi amaliy mashg'ulotlarga muhtoj. Shuningdek, ularga syujetli-rolli o'yin, rasm chizish, rasmga olish, tildan foydalanish va qurilish bloklari kabi yangi tajribalarni mavjud aqliy tuzilmalarga integratsiya qilish va amalda qo'llash uchun turli usullar kerak.

O'zgarish va xilma-xillik. Bolalar doimo o'zlari qiziqqan narsalarni izlaydilar: manzara, tekstura, ranglar, ijtimoiy guruhlar, faoliyat, muhit, tovushlar va hidlar. Bolalar ta'lim jarayonida / MTTda qancha ko'p vaqt sarflasa, ularga ko'proq xilma-xillik va rag'batlantirish kerak bo'ladi.

O'quv muhiti xavfsiz bo'lishi kerak. Bolalar xavfsizligi pedagogning asosiy mas'uliyati bo'lib, ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish va nazorat qilishni talab qiladi. Guruh xonasining maydoni qanday rejalashtirilganligi, rivojlanish markazlari qanday joylashganligi pedagogning bolalar salomatligi va xavfsizligini qanday ta'minlashi va ularning ta'limini yaxshilashiga ta'sir qiladi. Pedagog barcha bolalarni uyda ham, tashqarida ham ko'rishi va xona jihozlarining "ko'rinmas joylar" yaratadigan tarzda joylashtirilmasligini ta'minlashi kerak. Davlat o'quv dasturini amalga oshirish SanPiNda mustahkamlangan xavfsizlik qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

No	Rivojlanish markazlari	Joylashtirish bo'yicha tavsiyalar
1.	Qurish, konstruksiyalash va matematika	Bu markazni zonalash muhim, shunda uning yonidan o'tayotganlar qurilmalarni buzib yubormaydi. Bo'sh joy yetishmagan taqdirda bu markazni yotoqxonada ham joylashtirish mumkin
2.	Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish	Ushbu markaz yonma-yon joylashtirilishi yoki birlashtirilishi mumkin. Agar markazda yumshoq modulli mebel, shuningdek, oshxona mebellari mavjud bo'lsa, markaz dam olish joyi sifatida ham xizmat qilishi mumkin.
3.	Til va nutq	Ushbu markaz guruhning eng tinch qismida, bolalar faol faoliyati zonasidan uzoqroqda joylashgan bo'lishi mumkin. Ushbu markazda bolalar uchun kichik kutubxona ham bo'lishi mumkin. Agar bolalar modulli yumshoq mebellari mavjud bo'lsa, kitoblarni o'qish va ko'rish uchun kichikroq joy ajratish mumkin.
4.	Fan va tabiat	Bu markazni tabiiy yorug'lik yetarli bo'lgan joyga joylashtirish yaxshiroq, chunki bu yerda xona o'simliklari (gullar), shuningdek, akvarium, qushlar joylashishi mumkin. Bundan tashqari, turli tajribalar uchun mustahkam, barqaror yuzali stol bo'lishi tavsiya etiladi.
5.	San'at	Bolalar suv olishlariga qulay bo'lishi uchun uni rakovina yaqiniga joylashtirish ma'qul bo'ladi.

Guruhlarda, shuningdek, boshqa joylar ham bo'lishi mumkin.

No	Joyni tashkil etish	Joylashtirish bo'yicha tavsiyalar
1.	Guruh yig'ilishi va katta guruhda tadbirlar uchun joy	Har bir MTTda ushbu zonalarni tashkil qilish uchun yetarli joy yo'q, shuning uchun, qoida tariqasida, bu zonalar ko'pfunksiyali markazga birlashtirilgan. Shu sababli, bu yerda atrof-muhitning ko'chirilishi muhim ahamiyatga ega - bu bolalar ishtirokida bo'sh joyni tezda o'zgartirish va guruh yig'ilishlari (ertalabki va kechki davra), mashg'ulotlar o'tkazish, ovqatlanish uchun joy ajratish va qayta tartibga solish imkonini beradigan yengil yig'iladigan stol va stullarning mavjudligi.
2.	Ovqatlanish uchun joy ("Kafe", "Oshxona")	
3.	Sport burchagi	Odatda bu burchak kirish xonasida joylashgan bo'lib, u yerda turli xil bolalar sport anjomlari va harakatli o'yinlar uchun atributlar joylashtirilgan, agar kerak bo'lsa, ularni tashqariga ham olib chiqish mumkin.
4.	Dam olish joyi	Guruhda bolalarning dam olishlari uchun yumshoq modulli bolalar mebellari bilan jihozlangan joylarni tashkil qilishi mumkin, ular (divan, kreslolar, banketkalar); ularning imkon qadar qulay va shinam bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bunday joyni "Til va nutq" markazida tashkil qilish mumkin, bu yerda bola yolg'iz bo'lishi mumkin; bu joy juda katta bo'lmasligi kerak, u yerda 2 ta bola sig'adigan joy bolsa etarli bo'ladi. Bu yerda bolalarning tinchligini buzadiga va dam olishiga xalaqit beradigan faol o'yinlar o'tkazilmaydi
5.	Xilvat burchak	Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun doimo katta guruhning bir qismi bo'lish katta yukdir. Shuning uchun, guruhga bolalar uchun xilvatjoy ajratish tavsiya etiladi. Y yerga stol va ikkita stul qo'yib, bolalar o'zlari xohlagan o'yinni o'ynashlari, kitoblarni ko'rib chiqishlari va shunchaki o'tirishlari mumkin

10-ILOVA

Guruhlardagi rivojlanish markazlari va rivojlantiruvchi muhit uchun materiallarning namunaviy ro'yxati

Ushbu jadvalda bolalarning yoshi bo'yicha taqsimlanmagan, MTT guruhlaridagi rivojlanish markazlari va tashkil etilgan joy uchun uskunalar va materiallarning namunaviy ro'yxati keltirilgan. Shuni esda tutish kerakki, ushbu ro'yxat **taxminiydir** va uni to'liq to'ldirish shart emas. Ushbu jadval maksimal ro'yxatni ko'rsatadi va MTT da joy va mablag' yetishmasligi tufayli uni har doim ham amalga oshirish mumkin emas. Boshqa tomondan, har bir mintaqa va MTT mintaqaviy komponentning o'ziga xos xususiyatlariga ega, rivojlanish markazlarini jihozlashda aynan shularni e'tiborga olish tavsiya etiladi.

Mazkur jadvalda keltirilgan ma'lumotlar MTT jihozlashda uning real imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda MTT pedagoglarining aniq tushunishlariga, shuningdek, ularni ta'lim va tarbiya jarayonida bolalar bilan birgalikdagi faoliyat bilan to'ldirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, barcha materiallar bolalarning yosh imkoniyatlariga mos kelishi kerakligini esga tutish kerak.

№	Rivojlanish markazlari	Jihoz va materiallar
1.	Qurish, konstruksiyalash va matematika	Jihozlar: • materiallarni saqlash uchun ochiq javonlar; • polga gilam yoki palas; • stol (1), stullar (2-4). Materiallar: • yog'och, plastikdan yasalgan katta o'lchamli pol konstruktorlari; • katta yumshoq modullar to'plami; • transport o'yinchoqlari; • turli yoshdagi, millat, kasb vakillarini ifodalovchi haykalchalar; • hayvonlarning haykalchalari; • "Lego" konstruktori to'plami (odam figuralari bilan); • asosiy detallarga ega o'rta va kichik konstruktorlar to'plami: kubiklar, g'ishtchalar, prizmalar, konuslar; • boshqa stol konstruktorlari (metall, magnit va boshqalar); matematika uchun: • o'lchash, tortish, hajmi, shakli bo'yicha solishtirish uchun ochiq qutilarda turli xil materiallar. Qutilarni tizimlashtirilgan, yozuvlar va belgilar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak; • hisoblash uchun material va saralash uchun rangli stakanlar; • boshqotirmalar (geometrik, naqshni yasa va boshqalar); • katta o'lchamdagi raqamlar va arifmetik belgilar (namoyish materiali); • cho'tlar; • tortish va taqqoslash ob'ektlar bilan tarozilar; • turli uzunlikdagi lineykalalar; • har xil turdagi o'lchov ruletkalari;

1.		• qum soati; • sekundomer; • raqamli muvozanatlashtgich; • modellar to'plami: 2 dan 16 gacha bo'lgan qismlarga bo'lish uchun; • raqamli kartochkalar to'plami va boshqalar; • shashka, shaxmat.
2.	Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish	"Oila" o'yinini o'ynash uchun: • chaqaloq qo'g'irchoqlar va ular uchun aksessuarlar (ko'rpa, so'rg'ich, shisha idish va boshqalar); • kiyimli qo'g'irchoqlar (o'g'il bola va qiz bola); • bolaning bo'yiga mos bo'lgan qo'g'irchoq mebellari: stol stullari bilan, o'yinchoq plita, muzlatgich, qo'g'irchoq uchun karavot, javon; qo'shimcha ravishda: qo'g'irchoqlar uchun yumshoq mebel (divan yoki kreslo); • aravachalar; • qo'g'irchoqlar uchun kiyimlar (qish va yoz uchun); • qo'g'irchoq idishlari (kastyulka va tovalar, likopchalar, piyolalar, qoshiqlar va boshqalar), o'yinchoq ovqatlar. Kasb bilan bog'liq o'yinlar uchun to'plam va aksessuarlar: • "Shifokor" • "Sartarosh" • "O't o'chiruvchi" • "Militsiya xodimi" • "Sotuvchi" Sahnalashtirilgan o'yinlar uchun jihozlar (teatrlashtirilgan tomoshalar): • buklanadigan katta yoki kichik to'sinli parda; • kostyumlar uchun ilgich; • bolalar yoshiga mos keladigan ikki yoki uchta ertakni sahnalashtirish (aktyorlik qilish) uchun liboslar, niqoblar, atributlar; • kostyum elementlarini kiyish uchun atributlar (shlyapalar, sharflar, yubkalar, sumkalar, soyabonlar, munchoqlar va boshqalar); • imitatsiya va doiraviy raqs o'yinlari mazmuniga muvofiq atributlar: yovvoyi va uy hayvonlarining niqoblari (kattalari va bolalariniki), ertak qahramonlari niqoblari. Teatr tomoshalarining kichik shakllari uchun jihozlar (qo'g'irchoq teatri va boshqalar): • stol teatri uchun katta yoki kichik to'sinli parda; • tayyor o'yinchoqlarning atributlari va to'plamlari (kichik va o'rta o'lchamdagi shakllar) yoki stol teatri manzarasi elementlari sifatida hajmli va yassi o'yinchoqlar ishlab chiqarish uchun yarim tayyor mahsulotlar; • kattalar yoki bolalar qo'lga mutanosib bo'lgan atributlar (qo'lqopli yoki barmoqli) va bibabo qo'g'irchoqlari to'plami (bolalarga ko'rsatish uchun)

3.	Til va nutq	Jihozlar: • stol (1), stullar (2-4); • jihozlar va bolalar adabiyotlarini saqlash uchun ochiq javonlar; • magnit doska; • yumshoq bolalar mebellari (divan, kreslo); • televizor yoki eshitish vositali audio markaz. Materiallar: • qirqiladigan rasmlar; • pazllar; • rasmlar kubiklar to'plami; • loto; • domino; • juftli kartochkalar (xotira o'yinlari); • bolalarning yosh imkoniyatlariga muvofiq qoidalari bo'lgan boshqa stol-bosma o'yinlari (yurish o'yinlari va h.k.); • boshqotirma o'yinlari (masalan, tangram va boshqalar); • alifbo plakati; • magnitli alifbo; • harfli va bo'g'inli kubiklar; • qora va rangli qalamlar, flomasterlar; • trafaretlar; • lineykalar; • qog'oz, konvertlar; • yozish uchun mashq daftarlari, suv flomaster, latta; • audioyozuvli disklar (ertaklar, hikoyalar); • musiqali kompakt disklar; • bolalar badiiy adabiyoti (katta, oddiy matnli, tasvirli kitoblar) • bolalar uchun o'quv adabiyoti (ko'plab tasviriy materiallar bilan)
4.	Fan va tabiat	Jihozlar: • stol (1), stullar (2-4); • materiallarni saqlash uchun ochiq javonlar. Materiallar: • tadqiqot uchun turli ob'ektlar to'plami (toshlar, dengiz chig'anog'i, qarag'ay g'uddasi, minerallar, gazlamalar, urug'lar, o'simliklar (gerbariy va boshqalar) to'plamlari); • kattalashtiradigan oynalar, lupalar; • mikroskop; • magnitlar to'plami; • tajriba uchun to'plamlar; • tarozilar; • bolalar uchun xavfsiz termometrlar; • qum soati, sekundomer; • o'lchov stakanlari to'plamlari; • ob-havo taqvim; • globus, geografik xaritalar, bolalar atlas; • tasvirli o'quv kitoblari, plakatlar, rasmlar.

5.	San'at	Jihozlar: • stol (1-2), stullar (2-4) • materiallarni saqlash uchun ochiq javonlar • bolaning bo'yi barobar doska • molbert • ish kiyimlari yoki fartuklar Materiallar: Chizish uchun: • turli o'lchamdagi (A5, A4, A3, A2) va turli rangdagi qog'oz va karton • rasm chizish uchun albomlar • akvarel uchun qog'oz • mumli qalamlar, pastellar • qora va rangli qalamlar • markerlar, flomasterlar (yuviladigan, suv asosli) • akvarel va guash bo'yoqlari • yumaloq va tekis cho'tkalar, o'lchamlari: № 2-6, 10-14, 12-13 • palitralar, suv stakanlari, cho'tka uchun idish • muhrlar, lineykalar, trafaretlar • gubka, o'chirg'ich, salftkalar, cho'tka uchun latta Yasash uchun: • plastilin, gil, loy • taxtachalar • steklar Yasash va applikatsiyalar uchun • turli rang va fakturali yasach uchun qog'oz va karton • kollajlar uchun materiallar (kamida 3 turdagi) • uchlari to'mtoq qaychi • yelim-qalam • tabiat materiallari • ikkilamchi materiallar
----	---------------	--

	Tashkillashtirilgan joylar	Jihoz va materiallar
1	Guruhli yig'inlar uchun joy	Jihozlar: • magnitli yoki po'kakli doska • interaktiv doska • flipchart • polga gilam yoki palas • har bir bola uchun stullar • polda o'tirish uchun yostiqlar • o'yinchoqlar uchun modulli javonlar Materiallar: • bolalarning yoshiga mos o'yinchoqlar
2	Guruhli mashg'ulotlar uchun joy	Jihozlar: • pedagog uchun stol • zarur hujjatlarni saqlash uchun pedagogning uslubiy javoni • magnitli yoki po'kakli doska • interaktiv doska • flipchart • har bir bola uchun stol va stullar • polda o'tirish uchun yostiqlar
3	Ovqatlanish uchun joy («Kafe», «Oshxona»)	Jihozlar: • har bir bola uchun stol va stullar
4	Sport burchagi	Jihozlar: • sport mashg'ulotlari uchun sport gilamchalari (matlar) • to'plar, gardish (obruv)lar, sakrash arqonlari, lentalar • bolalar sport trenajotlari • harakatli o'yinlar uchun atributlar



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA TA'LIM
VAZIRLIGI

www.mdo.uz



har bir bola uchun

www.unicef.uz